

эътиборида бўлиши керак. Мазкур диссертацияда билдирилган фикрлар ва илмий хуросалар сўнгги йилларда босқичма-босқич ислоҳ этилаётган солиқ тизимини янада такомиллаштиришда яхши назарий-амалий пойдевор вазифасини бажариши мумкин.

Солиқ маъмуриятчилигида эришилаётган ютуқлар билан бирга, ҳали ҳам қўплаб талабга жавоб бермайдиган жиҳатлар мавжуд. Қонунчиликдаги такрорланувчи ёки зиддиятли нормалар, кадрларнинг малакаси, электрон текширув механизмлари ва бизнес билан муносабатларда етарли даражада очиқлик таъминланмагани иқтисодий тараққиёт суръатларини сустлаштириши мумкин. Шу боис, дастлаб ҳуқуқий ислоҳотларни ягона кодекс шаклида жамлаш, кадрлар салоҳиятини ошириш, текширув жараёнларини рақамлаштириш, “ягона дарча” тамойили орқали идоралароро интеграцияни кучайтириш, норасмий иқтисодиётни камайтириш ёрдамида солиқ тизимини такомиллаштириш йўналишлари таклиф этилади. Ана шу тавсиялар ишга оширилса, иқтисодий жараёнлар ёндашувида янги босқич тамал тошини қўйиши мумкин

## **MAMLAKATIMIZDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI IMTIYOZLI KREDITLASHDA AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

*Valiev Xayrulla Ismatullaevich  
“O'zmilliybank” AJ Toshkent shahar  
Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring  
qilish boshqarmasi boshlig'i*

Oilaviy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining daromadini oshirish va bandlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratilishi ushbu sohaning rivojiga katta hissa qo'shadi. Biroq, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan taqdirda, kredit mablag'laridan samarali foydalanish va ularni o'z vaqtida qaytarishda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, oilaviy tadbirkorlikni imtiyozli kreditlashda aholining moliyaviy bilimlarini oshirish juda muhim hisoblanadi.

Shunday ekan mamlakatimiz Prezidentining 2024 yil 2 aprelda “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi<sup>200</sup> PQ-149-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda aholining oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda imtiyozli kreditlarni ajratish, aholining daromad topishga qaratilgan faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish ko'zda tutilgan.


---

<sup>200</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-1492-son Qarori. Toshkent sh., 2024 yil 2 aprel.

Imtiyozli kreditlar kichik va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga past foiz stavkalari, uzoq muddatli qaytarish rejimi va kafolatli moliyaviy yordam kabi qulayliklarni taklif etadi. Bu imkoniyatlar tadbirkorlarga o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan resurslardan foydalanish imkonini beradi. Biroq, mazkur kreditlardan samarali foydalanish uchun tadbirkorlar moliyaviy rejalashtirish, mablag'lar taqsimoti va risklarni boshqarish bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda mamlakatimizning ijtimoiy tarmoqlari orqali Markaziy bankka Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar olish, buning uchun oilakredit yagona elektron platformasi orqali ariza yuborish, hokim yordamchilari tomonidan berilayotgan tavsiyalar, ta'minot bilan bog'liq holatlар va boshqa ko'plab savollar kelib tushmoqda<sup>201</sup>. Ushbu savollarga mas'ul shaxslar o'z vaqtida tushunarli javoblar berishib kelishmoqda.

Mamlakatimizda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari" bo'yicha ajratilgan kreditlar "Har bir oila – tadbirkor", fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, hunarmandchilikni rivojlantirish hamda mahalliy hokimliklar xuzuridagi jamg'armalar va Bandlikka ko'maklashish jamg'armalari hisobidan imtiyozli kreditlar ajratilib kelinmoqda.



### **1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratilgan kreditlar (mlrd.so'm)<sup>202</sup>**

O'zbekiston Respublikasida 2021-2024 yillarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratilgan kreditlarning eng ko'p ulushi "Har bir oila – tadbirkor" dasturiga to'g'ri kelib, unga jami ajratilgan kreditlarning 2021 yilda 95,7 foizini, 2024 yilda esa 94,8 foizini tashkil qilmoqda. Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 2021 yilda 2,21 foizni, 2024 yilda esa 5,15 foizni tashkil qilmoqda. Hunarmandchilikni rivojlantirish hamda mahalliy hokimliklar xuzuridagi

<sup>201</sup> www.oilakredit.uz

<sup>202</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. //cbu.uz.

jamg'armalar va Bandlikka ko'maklashish jamg'armalari hisobidan kreditlash esa 1 foizdan kamni tashkil etmoqda (1-rasm).

Oilaviy tadbirkorlikni imtiyozli kreditlashda moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- ❖ oilaviy tadbirkorlarga imtiyozli kreditlash shartlari, moliyaviy rejalahtirish va biznesni boshqarish bo'yicha maslahat xizmatlarini tashkil etish;
- ❖ televidenie, radio va internet orqali moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ko'rsatuvarlar va maqolalar e'lon qilish;
- ❖ oilaviy tadbirkorlar uchun kreditlash jarayonlari, moliyaviy rejalahtirish va byudjetni boshqarish bo'yicha onlayn kurslar va vebinarlarni tashkil etish;
- ❖ yosh avlodga moliyaviy bilimlarni oshirish uchun o'quv dasturlarini joriy etish;
- ❖ oilaviy tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

Oilaviy tadbirkorlikni imtiyozli kreditlashda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan tadbirkorlar kredit mablag'larini oqilona boshqara oladi, bu esa ularning biznesini muvaffaqiyatli rivojlantirishga va moliyaviy barqarorlikka erishishga yordam beradi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

## **ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Галкин Вадим**  
старший научный сотрудник  
Центра исследований Агентства госактивов РУз.

Управление налоговой системой является одним из важнейших аспектов государственной политики, определяющим экономическую стабильность и развитие страны. Эффективность этой системы в значительной степени зависит от адекватности налоговой политики и качества государственного управления. В условиях стремительного экономического роста, который наблюдается в Узбекистане, вопрос повышения эффективности управления налоговой системой становится очень актуальным.

В последние годы были проведены значительные реформы в области налогообложения, направленные на улучшение делового климата, повышение прозрачности налогообложения и стимулирование экономического роста. В частности, в последние годы была упрощена налоговая система, снижены налоговые ставки для малых и средних предприятий, а также внедрены различные меры по стимулированию